

***Usmonova Dilnoza Barotovna****Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*[dilnoza-usmonova@inbox.ru](mailto:dilnoza-usmonova@inbox.ru)***Nematova Zarina Furqat qizi****Buxoro davlat universiteti talabasi*[zarinanematoval418@gmail.com](mailto:zarinanematoval418@gmail.com)**Annotasiya**

Buxoro sharoitda koi karpini “Nodir-Nozim ko’li” MChJ korxonasida yetishtirilmoqda. Ushbu baliqlar amaliy jihatidan chet ellardan import qilingan baliqlardan qolishmaydi. Osiyo davlatlari rangdor koi baliqlarini o’stirish va sotish bo’yicha yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Shuning uchun faqat import qilingan sifatli karplarni sifat qiymatini pasaytirmasdan yetkazib beruvchi oraliq zveno sifatida xizmat qilib, bozor ehtiyojini qondirishga harakat qilinmoqda.

**Аннотация**

В условиях Бухары карп кои выращивается на предприятии ООО «Надир-Нозим кули». Эта рыба практически ничем не отличается от рыбы, импортируемой из-за границы. Азиатские страны являются ведущими странами по выращиванию и продаже разноцветных рыб кои. Поэтому она пытается удовлетворить потребности рынка, выступая в качестве промежуточного звена, поставляющего только импортного качественного карпа без снижения качественной стоимости.

**Annotation**

In Bukhara, koi carp is grown at the Nadir-Nozim Kuli LLC enterprise. This fish is practically no different from fish imported from abroad. Asian countries are the leading countries in the cultivation and sale of colorful koi fish. Therefore, it tries to meet the needs of the market by acting as an intermediary, supplying only imported quality carp without reducing the quality cost.

**Kalit so’zlar:** Koi, Xitoy, Sanke va Syova, karp, rangli dog’lar

**Key words:** Koi, Chinese, Sanke and Showa, Carp, Colored Spots

**Ключевые слова:** Кои, Китайский, Санке и Сёва, карп, цветные пятна

**Kirish**

Taxminan 2500 yil avval Xitoya Kaspiy dengizi atrofidan karp balig'i olib kelingan. Yaponiyaga karp balig'i qachon olib kelinganligi to'g'risida turli taxminlar bor. XIY-XY asrlarda Xitoydan Yaponiyaga ko'chib borganlar olib borgan degan taxminlar bor. Yaponlar bu baliqni “Magon” ya’ni qora karp deb atashgan. Keyinchalik

yaponiyali dehqonlar ushbu baliqni istemol qilish maqsadida sun'iy suv havzalarida o'stira boshlaganlar. Ayniqsa tog'li, yashash uchun qiyin bo'lgan mintaqalarda (masalan, Nigata provintsiyasida) karp balig'i yagona ozuqa man'bai bo'lib hisoblangan.

Keyinchalik ayrim karplarning rangi o'zgarib borgan va bunday nostandard rangli baliqlar ozuqa sifatida ishlatalmasdan, xonadonlarda uzoq saqlanib qolgan. Lekin ko'p o'tmasdan rangdor karplar dehqonlarning ermag'i bo'lib, ularning egalari o'z baliqlarini rangdor baliqlar bilan chatishtira boshlagan. Natijada yangidan-yangi rangli variatsiyalarni yuzaga keltirishgan. Bunday ermak butun Yaponiya bo'yab ommalashib, savdogarlar va aholining zodagon qatlamlari ham shug'ullana boshlagan. Taysyo Tokio vistavkasi 1914 yili birinchi marta rangdor koilarni keng jamoa e'tiboriga havola qilgan. Hozirgi paytga kelib ko'pchilik mamlakatlarda havaskorlarning maxsus klublari va assotsiatsiyalari mavjud bo'lib, ularda vistavka va shoular o'tkazilmoqda.

### **Metodologiya va natijalar:**

**Tanasining tuzilishi.** Koining umumiy ko'rinishi — bosh qismining shakli, tana va suzg'ichlarining tuzilishi hamda ularning nisbiy proportsiyalari.

Koi urg'ochisi tanasining tuzilishi bo'yicha nisbatan afzalliyikka ega bo'ladi. Erkaklari odatda genetik imkoniyati jihatidan kuchsizroq rivojlangan bo'lib, urg'ochisiga nisbatan biroz ojizroq bo'ladi. Suzg'ichlarining shakli va o'lchami jihatidan tana tuzilishiga proportsional tuzilgan. Ushbu baliq dekoratsiya jihatidan afzallikka ega bo'lishi uchun boshining shakli unchalik kalta bo'lmasligi, iloji boricha uzunroq va yoki bir tomonga qarab qiyshayganroq bo'lishi talab qilinadi. Tanasiga yuqorida qaralganda esa bir tekkis va ikkala tomoni proportsional ko'rinishga ega bo'lishi zarur.

Rangi va chizmalari. Tashqi tuzilishi va teri teksturasi. Birinchi navbatda terisining sifati va rangining yorqin hamda yaltiroqligi muhim ahamiyat kasb qiladi. Shuningdek rangining o'zaro hamohangligi va bir-biriga mosligi yuqori baholanadi. Terisi esa sog'lom va tiniq bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Rangining sifati, umumiy va chekkalarining hoshiyalari hamda ular orasidagi uzviy mutanosiblik. Rangli dog'lari aniq chegaralangan bo'lishi talab qilinadi. Ular orasidagi chegara tiniq va ko'rkam hamda muvozanatlashgan bo'lishi kerak. Oldingi qismida, o'rtasida va dum qismida "og'ir" qismlari bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Yoki boshqacha qilib aytilganda rangi va chizmalari baliq tanasiga proportsional bo'lib, "yirik baliqqa yirik jim-jima" degan matalga mos bo'lishi kerak.

### **Sifati:**

- tashqi tuzilishiga qo'yiladigan talablar, har bir zotning spetsifikligi yoki zotning tavsifi;
- qad-qomat, yoki koi balig'i suvda o'zini qanday tutadi va qanday suzib yuradi;

• har bir koining qoldiradigan o'ziga xos ta'ssuroti – barcha nuqtalarini jamg'aruvchi baholash;

**Koining klassifikatsiyasi.** Koining 80 dan ortiq zotlari bor. Qulaylik uchun ularni bir yoki bir necha tavsifi bo'yicha quyidagi 16 guruhga bo'linadi.

Bugungi kunda karplarning rangdor variatsiyalari juda ko'p bo'lib, ular 101 ga yaqin. Shulardan quyidagilarni alohida ajratish mumkin: Koxaku, Taysyo Sansyoku, Syova Sansyoku, Utsurimono, Bekko, Tantyo, Asagi, Syusuy, Koromo, Kinginrin, Kavarimono, Ogon, Xikari-moyomono, Gosiki, Kumonryu, Doytsu-goi va bosh. Karp bilan shug'ullanish ishtiyog'i ommalashib ketdi va asta-sekin butun Yaponiyani qamrab oldi. XX asr boshlarida Tokio shahrida birinchi marta tashkil etilgan ko'rgazmada koi balig'i keng xalq e'tiboriga havola qilingan. Aynan yaponlar ushbu karp balig'ida gastronomik sifatlardan tashqari rangdorlik estetikasini o'zida namoyon qiluvchi karpni kashb etishgan. Oradan 100 yil o'tib, hozirgi paytda butun dunyo baliq ixlosmandlari ushbu koining ajoyib xislatlarini sevib qolishdi.

Qidiruvchilar shijoat bilan koi balig'i selektsiyasi bo'yicha ish olib bormoqdalar va bunda alohida e'tiborni sifat kriteriyasiga qaratmoqdalar. Ushbu baliqni baholashda birinchi e'tibor tana shakliga, rangini to'yinganligi va kontrastiga hamda umumiy rangdorlik aniqlagichiga qaratiladi. Har qanday rangdor karp ham koi deb atalish sha'niga ega bo'lavermaydi! Buni albatta esda saqlab qolish zarur! Sifatli baliq yaratishga to'g'ri yo'l topish uchun baliqni urchitish va har bir koining chavoqlarini o'stirishda jiddiylik bilan e'tibor berib saralab boriladi. Orada bir qancha baliqlarni standartga javob bermaganligi sababli tashlab yuborishga to'g'ri keladi. Ana shunday o'nlab qayta tanlovlardan so'ngina 100 tadan bitta koi chig'iriqdan o'tadi. Ushbu tanlangan yagona koi ning sifati esa o'lchami 25-30 sm bo'lgach aniqlanadi. Shuning uchun ham koi karplarini Osiyo Aravanlari singari sifat kategoriyasiga qarab, ayrimlarini hatto bir necha ming dollarlarda baholanadi.

Bizlarning qush bozorlarimizda e'tiborimizga havola qilinadigan rangdor karplar esa afsuski dunyo standartlariga mos kelmaganligi natijasida ajratib tashlangan qoldiq mahsulotlar bo'lib hisoblanadi. Mahalliy havaskor qidiruvchilar buni juda yaxshi bilishsada, faqat miqdor ko'rsatgichi orqasidan quvib, sifat muammosi bilan mutlaqo shug'ullanishmaydi. Tajribasiz havaskorlar bunday baliqlarni sotib olgach, ma'lum vaqtdan keyin umuman ularni nima qilishni bilmay qolishadi. Lekin har qanday baliq ham – baliq bo'lib hisoblanadi va uning o'ziga yarasha bahosi bo'ladi. Biz e'tiboringizni jalg qilmoqchi bo'lgan narsa shundan iboratki, har qanday baliqni ham sotib olgan paytda diqqat bilan ko'zdan kechirish, alohida idishda saqlash va uning tuzilishidagi barcha xususiyatlarini sinchiklab o'rghanish kerak bo'ladi. Ayrim ma'lumotlarni sotuvchi egasidan aniqlash, tana tuzilishida nuqsonlar yo'qligiga ishonch hosil qilish, ko'zlarining joylashishida simmetriya buzilmaganligini tekshirib

ko'rish, rang tiniqligi bekamko'st ekanligiga ishonch hosil qilingach uni xarid qilish maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Haqiqiy sifatli koilarni Osiyo fermalarida uchratish mumkin. Hozirgi paytda baliqlrni Indoneziya, Malaziya, Tailand, Izrail, Yaponiya kabi bir qator mamlakatlardan import qilish imkoniyati bor.

Koi xobbisi butun dunyoni o'ziga maftun etdi. Ko'pchilik mamlakatlarda hozirgi paytda o'zining mashhurligi bilan avtosalonlardan bemalol qolishmaydigan koi xavoskorlari klubi va assotsiatsiyalari ishlab turibdi, vistavka va shoular o'tkazilmoqda.

«Koi» so'zining o'zi yapon tilidan «karp» deb tarjima qilinadi. Yovvoyi qora zog'ara baliq qadim zamonlardan beri Kaspiy dengizi xududlarida yashab kelgan. Zog'ara baliqni birinchi marta xonakilashtirishni perslar amalga oshirgan deb hisoblanadi. Savdo sotiqni rivojlanishi natijasida va zog'ara baliqni o'ta hayotchanligi evaziga Uzoq Sharqdagi katta xududlarni egallab olishga erishgan. Bundan taxminan 2500 yil oldin zog'ara baliq Xitoyga olib borilgan. Qadimiylar ushbu baliqni munosib holda baholaganlar va aynan ular "Koi" nomini ishlatishgan. Natijada ushbu nom hozirgacha ishlatilib kelinmoqda. Afsonalarga qaraganda eramizdan 533 yil avval Konfutsiy o'zining yangi tug'ilgan chaqalog'ini imperator Shoko tomonidan sovg'a qilingan ushbu baliq sha'niga Koi deb atagan ekan. Hozirgi paytgacha Xitoy va Yaponiyada zog'ara baliq kuch va chidamlilik belgisi sifatida e'zozlanib kelinadi. Yaponiyada ushbu baliq qachon paydo bo'lganligi unchalik aniq emas. Buning to'g'risidagi birinchi yozma ma'lumot eramizning 8 chi asriga to'g'ri keladi. Ehtimol qilinishicha zog'ora baliq Yaponiyaga qit'adan keltirilgan bo'lib, mahalliy daryo va ko'llarda joylashib olgan. Ayniqsa bu mamlakatning yetib borish qiyin bo'lgan joylarida oqsil man'bai sifatida faqat ushbu baliq ishlatilgan.

Dalalarini sug'orish uchun dehqonlar maxsus qazilgan chuqurlarda suv saqlshni yo'lga qo'yishgan. Aynan ushbu chuqurlar zog'ara baliqlarini o'stirish uchun mos bo'lgan. Asta-sekin dehqonlar baliq yetishtirishni o'zlashtiraboshlagan va ularni ozuqa sifatida ishlatishgan. Zog'ara baliqlar iyun boshlarida ivildiriq tashlab, ulardan chiqqan chavoqlar oktyabr o'rtalarigacha o'stirilgan, keyin esa ularni ushlab tuzlangan hamda qishda ishlatish uchun saqlab qo'yilgan. Yirik baliqlarni saqlab qolish uchun hovlilardagi yoki uyning ichida qurilgan kichik hovuzlarga o'tqazishgan. Bu hovuzlarda baliqlar uchun yetarli kislород yuzaga keltirish maqsadida suv ustini tuxtovsiz to'lqinlashtirib turishga to'g'ri kelgan. Chunki u paytda elektr nasoslar va kompressorlar bo'limgan albatta. Xullas, primitiv usullar bilan bo'lsa-da nasl uchun baliqlarni kelasi yilga saqlab qolishgan. Baliqchi fermerlar zog'ara baliqlarni rangi o'zgarib qolganini sezmagan bo'lsada, qaysidir tashqi muhit ta'sirida rangdor koilar yuzaga kelgan. Mahalliy aholining fikricha bu hodisa 1840 va 1844 yillarda paydo bo'lgan. Shundan so'ng «rangdor zog'aralarni» yoki xirogailarni o'stirish dehqonlar

uchun ishqivozlikka aylanib qolgan. Bunday rangi o'zgargan baliqlar haqiqiy uy hayvoni hisoblana boshlangan. Ayrim hovlilarda oq tangachali koilar yuzaga kelgan bo'lsa, boshqalarida qizillari paydo bo'lган. Ularni o'zaro chatishtirish yo'li bilan esa hobbi avj olib, xilma-xillik tobora o'sib rivojlangan. Natijada nafaqat rangdor baliqlarning o'zi, balki, ularning ekzotik jimjima holdagilari, qolaversa o'ziga xos tirik san'at asarlarini yetishtirish avj olgan.

Zog'ara baliqning odatdag'i rangi uch xil pigmentning barobar rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Ulardan melanoforlar qora pigmentni boshqaradi. Ksantofor pigmenti – sariq-to'q sariq (apelsin rang) rangni va guanofor esa tangachalarga yaltiroq beradi. Agarda baliq to'q sarg'ish bo'lsa demak melanofor pigmenti bo'lmaydi, ko'k ranglida ksantofor pigmenti kuchsiz rivojlangan yoki butunlay bo'lmaydi va nihoyat oq ranglilarda – melanofor ham, ksantofor ham bo'lmaydi. Urg'ochi baliqlarning ko'krak suzg'ichlari nisbatan o'tkir va baliq tanasiga nisbatan solishtirib ko'rilmaga kattaroq bo'ladi. Shuningdek urg'ochilarining tanasi nisbatan yirikroq va dumoloqroq bo'ladi. Urchish paytida erkaklarining jabra kopqog'ida bug'doy yormasiga o'xshash epitelial bo'rtma yuzaga keladi. Bu paytda jabra kopqog'ini dum tomoniga qarab silab ko'rilsa g'adir-budir ekanligi seziladi. Urg'ochi va erkagi anal teshigini tuzilishida ham ma'lum farqlarga ega bo'ladi. Baliqning jinsini aniqlash uchun tanlab olingan ekzemplyar alohida idishga solib qo'yiladi. Chunki baliq ma'lum muddatda tinchlanishi kerak. So'ngra uni ehtiyyotlik bilan qo'lga olib orqasiga to'ntariladi. Erkaklarida anal teshigi bosh tomonidan dum qismiga qarab cho'zilgan bo'ladi. Agarda jinsiy yetuk baliqni yon tomonlarini dum qismiga qarab siypalansa albatta jinsiy xosilalari ajralib chiqadi. Urg'ochilarida anal teshigi nisbatan shishgan va dumoloqlangan bo'ladi. Bosib ko'rilmaga jinsiy hosilalari ajralib chiqmaydi.

Koi balig'i ham oddiy zog'ora baliqlarga o'xshab ko'payadi. Koining ko'paytirishdagi asosiy qiyinchilik nasldor ekzemplyarlarni va naslni selektsiyasini to'g'ri tanlashdir. Bunda sifatli uvildiriq olish uchun urg'ochi ekzemplyarlar 5 yoshli, erkagi esa uch yoshda bo'lishi talab qilinadi. Bitta urg'ochisiga 2–3 erkagi to'g'ri kelishi kerak. Erkagining ko'proq bo'lishi otalangan ivildiriqlarning foyizi oshishiga va naslni to'liq bo'lishiga olib keladi.

### **Xulosa:**

Umuman karpsimonlarning uvildiriq tashlashga olib keladigan asosiy omil suvning parametrlarini o'zgarishi bo'lib hisoblanadi. Tabiatda bu jarayon uzoq muddat yog'adigan yomg'irlar bilan belgilanadi. An'anaga muvoffiq koining zotlarini va boshqa belgilarini nomlashda yapon terminologiyasi ishlataladi. Toza oppoq va qizil koilar uzoq muddat davom etgan tirishqoqlik selektsiya natijasida yuzaga kelgan. Oq va qizil koilarning XIX chi asr oxirlarida chatishtirilgan nasli yangi zotni yuzaga keltirib, uni Koxaku nomi bilan atalgan. Ular qizil dog'li oq baliqlar ko'rinishida bo'lgan. Chatishtirishning keyingi etapida koining rangiga yana qora tus qo'shilgan.

Natijada yana ikkita zot – Sanke va Syovalar yuzaga kelgan. Ushbu uchta zotlar hozirgi paytda eng dongdor uchlik bo'lib hisoblanadi. Umuman esa hozirgi paytda koining 80 dan ortiq xilma-xil zotlari bo'lib, ularning miqdori doimo o'sib bormoqda. Hozirgi paytda koining zotlari bo'yicha tan olingan aniq klassifikatsiya yo'q. Yaponiyaliklar 10 asosiy zotlarni tan olishadi. Lekin ayrim yapon mutaxassislari boshida dumaloq qizil dog'lari bo'lган variatsiyali Tancho zotini mustaqil deb xisoblashadi. Sinflarni baliqlarning tusiga, tanasida rangli dog'larning joylashishiga va tangachalarining xiliga qarab aniqланади. Harbir sinf tarkibida har bir belgilar bo'yicha birqator kichik sinflarga ham bo'linadi. Ayrim paytlarda o'striladigan koilar ikkita va undan ham ortiq sinfga kiruvchi noyob belgilar kombinatsiyasiga ega bo'ladi. Bunday baliqlarni ma'lum bo'lган birorta sinfga kirgizish qiyin bo'ladi, shu sababli vaqt o'tishi bilan ular mumkin o'zining yangi sinfini yuzaga keltirishi ehtimoldan holi emas. Har bir sinfda koi doimo 2 ta kichik sinf xilma-xilligini namayon qiladi. Bular tangachasizlar (yoki Doytsu) va sadafsimon yaltiroq tangachalilarni (Ginrin) tashkil qiladi.

<b>Zotlar</b>	<b>Rangi</b>
Koxaku	Qizil rasmlı oq rangda
Sanke	Qizil rasmlı va boshidan tashqari hamma joyida qora dog'li oq rang
Syova	Uch xil rangli – oqli qora va qizil dog'li, boshida uchchala rang bo'lган, ko'krak suzg'ichlari asosida qora.
Asagi	Elka va yon tomonlari ko'k, qorni apelsin rang yoki qizil, tangachalari oq xoshiyalı to'rsimon rasmlı, ko'krak suzg'ichlari asosida va boshining yonida qizil dog'li
Shusui	Tangachasiz yoki oynasimon tangachali, yelka yonlari bo'ylab boshidan to dumigacha 2 qator yirik tangachali
Bekko	Qizil fonda qora tangachali, apelsinrang, ko'krak suzg'ichi asosida qora yo'lli sariq yoki oq, boshida qora dog'siz
Xikari	Tangachalari sadafsimon yaltiroq tangachali
Ginrin	Metalsimon yaltiroq tangachali
Utsurimono	Bir xil oq fonda qora, qizil yoki sariq rasmlı

Kavarimono	Mavjud bo'lgan standartlarga kirdizib bo'lmaydigan koi uchun umumiy termin
Tancho	Faqat boshida qizil dog'li, boshqa joylarida qizillik yo'q.

Genetik tekshiruvlarning ko'rsatishicha koi Gollandiya zog'ara balig'inining to'g'ridan-to'g'ri avlodi bo'lib, ular esa o'z navbatida Volga va Dnepr sazanlaridan paydo bo'lgan. Lekin aynan yaponiyalilar fenomenal chidamlilik va tabiatga chuqur xissiyot bilan ushbu baliqlarni takomil rangdor zog'ara baliqlargacha yetkazib kelishgan hamda butun dunyoga sifat kriteriyalari bahosida, o'stirish traditsiyalari bilan birga zot namunalarini yetkazib berishgan

### **Adabiyotlar ro'yxati**

- Усмонова, Д. (2022). А Морфометрические Показатели Длиннопалого Рака (*Pontastacus Leptodactylus* (Eschscholtz, 1823)): ДБ Усмонова, НА Шамсиев, ЭБ Жалолов, АУ Амонов. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 12(12).
- Amonovich, S. N., Farmanovich, A. B., Baratovna, U. D., & Naimovna, A. D. (2020). Phytoplankton of Ayakagimta Lake. *International Engineering Journal for Research & Development*, 5(4), 3-3.
- Усманова, Д. Б., Носиров, О. Т., & Бозорова, Д. С. (2024). МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МАЛЬКОВ БЕЛОГО АМУРА, СТЕНОФАРЫНГОДОН IDELLA, В ПРУДАХ НИЗОВЬЕВ ЗАРАФШАНА. *Science and innovation*, 3(Special Issue 40), 313-316.
- Усмонова, Д. Б. (2024). ВЫРАЩИВАНИЕ КАРПА В ПРУДУ. *Miasto Przyszłości*, 48, 537-542.
- Усмонова, Д., Бозорова, Д., Юлдашов, М. и Камилов, Б. (2024). Морфологическая характеристика годовиков белого амура (*Ctenopharyngodon Idella*) в рыбоводном хозяйстве Бухарской области, Узбекистан. В *E3S Web of Conferences* (т. 563, стр. 03027). EDP Sciences.
- Усмонова, Д. Б., & Шамсиев, Н. А. (2018). РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РАЗРАБОТКЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ТЕХНИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ (ОРГТЕХМЕРОПРИЯТИЙ) ПО РАЦИОНАЛЬНОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ. *GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2020: CENTRAL ASIA*.
- Баротовна, УД (2025). БАЛИКЛАРНИ ТАБИИ ОЗУКАЛАР БИЛАН ОЗИКЛАНТИРИШ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 39 (3), 171-175.
- Баротовна, УД (2025). ЭКЗОТИК БАЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ АХАМИЯТИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 39 (2), 104-109.